

## I AM AMONG THE CREATORS OF NEW UZBEKISTAN

**Zayniddinova Sevinch Jaloliddin qizi**

Tashkent State Pedagogical University, Faculty of Professional Education,  
Faculty of Fine Arts and Engineering Graphics, 1st stage student.

**Abstract:** This article talks about the reforms implemented in our country in recent years. In particular, fundamental reforms in the field of education, youth issues and wide-scale opportunities given to them, and the work being carried out for the prosperity and development of society and the state were described. The priority tasks and current problems of the youth were also discussed.

**Key words:** Youth, national culture, reforms, "Third Renaissance", New Uzbekistan, measures, Constitution, science, education, globalization, spirituality.

### KIRISH

Davlatimiz rahbarining mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy vaziyat taqozosi sifatida hamda xalqimizning asriy intilishlari va milliy manfaatlariga to'la javob beradigan Yangi O'zbekiston barpo etish zarurati to'g'risidagi fikrlari go'yoki barchamizni oliy maqsad sari yetaklovchi mayoqdir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, buning negizida Yangi O'zbekiston bunyodkorlari bo'lgan biz yoshlarni har tomonlama bilimli, intellektual salohiyatga ega, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy sohalardagi islohotlarga dahldorlik hissi bilan yashaydigan barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishi ta'lim-tarbiya tizimida muhim vazifa qilib qo'yilgan.

### Asosiy qism.

Mamlakatimizda yosh avlodni komil inson qilib voyaga yetkazishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Xususan, yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, ularni yuksak ma'naviyatli, zukko, bilimdon, yurt taqdirini o'z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar muhayyo qilinyapti. Prezidentimiz rahbarligida ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, har tomonlama yetuk, malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash hamda Vatanga sadoqatli yangi avlodni voyaga yetkazish mexanizmlarini yaratish maqsadida olamshumul islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zotan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masalaga haqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda". Shu boisdan mamlakatimiz rahbari pedagogik ta'lim va tarbiya asrlar davomida xalqimiz tomonidan ulug'lab kelinganligini qayd etar

ekan, donishmandlarning “tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” degan qarashlariga tayanish muhimligini inobatga olib, “Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”<sup>[1]</sup> degan fikrni alohida ta’kidlab o‘tadi.

Mamlakatimizda yoshlarni har tamonlama bilimli va intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashning huquqiy asoslari ham ta’minlanganligini aytib o‘tish o‘rinlidir. Yangilangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida “Har kim ta’lim olish huquqiga ega. Davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi. Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’lim va boshlang‘ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim majburiydir. Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o‘rta ta’lim davlat nazoratidadir. Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.”<sup>[2]</sup>

Shuningdek, Bosh Qomusimizning 79-moddasida esa “Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.”<sup>[3]</sup>-deb huquqiy kafolatlangan.

Yangi O‘zbekistonni “ijtimoiy davlat” tamoyili asosida qurish asosiy maqsadimizdir. O‘tgan vaqt davomida ta’lim tizimiga katta e’tibor qaratildi. Shuningdek, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni alohida ta’kidlashni istardim. Maktablarda ta’lim sifati hamda jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish, muallimlarning sharoitlarini yaxshilash hozirda eng asosiy vazifalardan biriga aylandi. Jumladan, boshlang‘ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish yo‘lga qo‘yilmoqda. O‘quvchilarning maktabdan o‘zbek tili va chet tillarini puxta o‘zlashtirib, kompyuterda ishlashni o‘rganib chiqishiga,

---

1 Ш.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент Ўзбекистон, 2017 й (504-505 б.)

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil (Yangi tahrirdagi) 19-bet

3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil (Yangi tahrirdagi) 26-bet

ularida erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Maktab ta'limi xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilindi. 2023-yili 70 ta yangi maktab quriladi, 460 ta maktab kengaytiriladi. Xususiy investitsiyalar ishtirokida 100 ta maktab qurish loyihalari boshlandi, kelgusi besh yilda ularning soni mingtaga yetkazish rejalashtirilgan.

Hozirda bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 70 foizni tashkil etmoqda. Kelgusi besh yilda ushbu qamrovni 80 foizga yetkazish, buning uchun 600 ming yangi bog'cha o'rni barpo etish rejalashtirilmoqda.

Yurtimizda har bir bola-ning umumiy o'rta ta'lim olishi majburiy va bepul. Davlatimiz rahbari «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmoniga ko'ra, 2023/2024-o'quv yilidan boshlab respublikaning barcha viloyatlari va Toshkent shahrida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bepul ovqat bilan ta'minlash yo'lga qo'yiladi.[4]

Ayni paytda nafaqat yirik shaharlarda, balki mamlakatimizning eng chekka hududlarida ham o'g'il-qizlarimiz sifatli ta'lim olishi, sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimi moddiy-texnik bazasining yangilanishi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanganligi, sport inshootlarining zamonaviy inventarlar bilan jihozlanishi biz yoshlarning ham ma'nan, ham jismonan sog'lom avlod bo'lib voyaga yetishimizda imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yetim, ota-ona qaramog'idan mahrum va nogironligi bo'lgan bolalarga ta'lim berish hamda ularni ta'minlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshirilyapti.

Prezidentimiz so'nggi yillarda oliy ta'lim muassasalari 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetgani, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshganini qayd etdilar. Bu ko'rsatkichlarni yanada ko'paytirish ko'zda tutilayotganini, lekin ta'lim sifatini oshirishga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozimligini ta'kidladilar. Shu o'rinda shuni ta'kidlashim lozimki, muhtaram Prezidentimizning 2019-yil, 20-martdagi «Toshkent shahrida Vebster universitetining ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazini tashkil etish to'g'risida»gi qarori bilan MDHda yagona, zamonaviy turar joy va sport komplekslariga ega bo'lgan AQSH universitetining aynan Toshkent shahrida ochilishi ham bevosita olib borilayotgan islohotlar, ta'limga qaratilayotgan e'tiborning kichik bir namunasi, deb bilaman. Zero, Yangi O'zbekiston ostonasi ta'limdan boshlanadi.

### **Xulosa.**

O‘ylaymanki, yaratilayotgan imkoniyatlar yoshlarni izlanish va intilishida, yuksak marralarga erishishida poydevor bo‘ladi va albatta hayotimizning buguni kechagidan, ertasi bugungidan yaxshi va obod bo‘lishiga, ongu tafakkurimizning yuksalishiga xizmat qiladi. Yaratilayotgan imkoniyatlarning guvohi bo‘lgan yosh avlod sifatida shuni ishonch bilan aytamanki, biz Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari qatorida bo‘lamiz.

Prezidentimiz tomonidan yoshlarga katta ishonch bildirilib, olib borilayotgan bunday islohatlar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlarga javoban, yangi O‘zbekiston yoshlari yuqori darajali bilim egalari va yetuk kadrlar bo‘lib yetishishga, egallagan bilim va ko‘nikmalarimiz bilan yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga va‘da beramiz. Farzandlari doim izlanishda bo‘lgan, yuksak marralarni ko‘zlab doimo oldinga intilgan xalq o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga albatta erishadi.

Sirasini aytganda, ilm-fan, sport, san‘atda zamonaviy bilim va tafakkurga, sog‘lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga qodir yosh avlodning yuksak salohiyati, dunyoni lol qoldirayotgan yutuqlarini ko‘rganda, beixtiyor qalbimiz faxr-iftixorga to‘lishi rost. Ishoning, ayni damlarda pokiza tuyg‘ulari-yu savolnamo nigohlari bilan shu zaminga ilk qadamlarini qo‘yayotgan har bir bolajonga qaratilgan e‘tibor ana shu quvonchning bardavomligini ta‘minlaydi. Zero, uning ertasi, yorug‘ istiqboli O‘zbekiston kelajagiga tutashdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ш.Мирзиёев Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз Тошкент Ўзбекистон, 2017 й. (504-505).
2. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil (Yangi tahrirdagi) 19-bet*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil (Yangi tahrirdagi) 26-bet*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan YANGI O‘ZBEKISTONNING taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.*
5. [https://t.me/yuz\\_official](https://t.me/yuz_official)
6. <https://t.me/oyinauz>